

**ILG'OR XORIY TAJRIBASI ASOSIDA MAKTABLARDA TA'LIMNI  
TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

*Mamatqulov Shuxrat Nazarovich,  
Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasini  
dotsenti*

---

*Annotatsiya: Ushbu maqolada xorij tajribasi asosida maktablarda ta'limni tashkil etish va respublikamiz ta'lim tizimidagi o'zgarishlar borasida ma'lumotlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: Germaniya ta'lim tizimi, Kembrij universiteti, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli», «Found Karnegi» pedagogik markazi, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish, hamkorlik o'rnatish va muloqot qilish.*

**MODERN METHODS OF ORGANIZING EDUCATION IN SCHOOLS  
BASED ON ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE**

*Mamatkulov Shukhrat Nazarovich,  
Termiz State University Associate Professor of «Fine Art and Engineering  
Graphics» Department.*

---

*Annotation: this article provides information on the organization of education in schools on the basis of foreign experience and changes in the educational system of the Republic.*

*Keywords: German education system, Cambridge University, «the embodiment of school success and prosperity», «Found Karnegi» pedagogical Center, critical thinking, creative approach, establishing cooperation and communication.*

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В  
ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА**

*Маматкулов Шухрат Назарович,  
доцент кафедры «Изобразительное искусство и инженерная графика»  
Термезский государственный университет.*

---

*Аннотация: В данной статье представлена информация об организации обучения в школах и изменениях в системе образования нашей республики на основе зарубежного опыта.*

*Ключевые слова: немецкая система образования, Кембриджский университет, «символ школьного успеха и благополучия», Педагогический центр Фонда Карнеги, критическое мышление, творческий подход, сотрудничество и общение.*

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nau eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi.

Ma'lumki, O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga, xususan, nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlar 2016-yilda O'zbekistonda 24 ta nodavlat ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 84 tadan oshganidan darak bermoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ishki siyosatiga faol

ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan yilga - oshib bormoqda. Yaponlarda masalan, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat – e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQSH ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejjiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatini harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSH da xalqaro instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchilikning faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha, maqbul hisoblanadi. 1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

XX asrning 80- yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi. Amerikadagi ko'zga ko'ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili adabiyoti matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir. «Yangi dunyo» ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir. Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasida chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushida keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDR dagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta'lim tuzilmasini yangi me'yorga va o'lchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta'lim tizimiga o'tkazib o'qishdan iborat. Ammo, buning ham o'ziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag' masalasi bo'lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu o'zgarishga munosabatidir. Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi bir yerlarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishini bitiradi, keyin hunar texnika bilim yurtlarida to'la bo'lmagan haftalik o'qishida o'qiydilar. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ansha kam. Boshlang'ish maktab. O'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o'qish davomida bolalarga baho qo'yilmaydi. Boshlang'ish maktabda 4 yillik o'qishdan keyin o'quvshilar yo'nalish bosqishidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqishdagi yo'nalish maktab tipiga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan holda maxsus dastur asosida o'qitiladi bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talabning kuchliligidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar ta'limi tizimi turli tipdagi o'quv yurtlari va o'qitishning turli shakllariga ega. Eng ko'p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta'limining —Dual tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarning 50 foizi va to'liq o'rta maktablarning 16 foizi o'qishni davom ettiradi. Maxsus hunar bilim yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarining 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdagi o'quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesvegga tegishlilaridan tashqari bo'lgan oliy o'quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo'ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta'lim federatsiyasi boshqaradi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o'z ustavlarini qabul qiladilar Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylanadigan Prezident boshqaradi. Ko'pchilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o'z-o'zini boshqaradilar. Oliy o'quv yurtlarida o'qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanadi. Shundan keyin o'qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish uchun imtihon topshiriladi. Ta'lim sohasidagi siyosat aholining ko'plab qatlami uchun oliy o'quv yurtlari darvozasini keng oshdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o'quv yurtlarida chet elliklar o'qishidan manfaatdordir.

Jumladan mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'limni isloh qilish, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, o'qituvchilik kasbining mavqeini va ta'lim sifatini oshirish, farzandlarimizni har jihatdan etuk, intellektual salohiyatli, ertangi kunimiz suyanchi va tayanchi bo'la oladigan insonlar sifatida kamol toptirishga ustuvor

ahamiyat qaratilmoqda. Buning ifodasini sohada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rivojlangan davlatlar tajribasi keng qo'llanayotgani, ta'lim-tarbiya jarayoni innovatsion yondashuvlar asosida olib borilayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mul'timedia vositalaridan oqilona foydalanilayotgani, xalqaro miqyosda ham ta'lim va tajriba almashuv jarayoni izchil rivojlanib borayotgani kabi istiqbolli odimlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Yurt iqtisodiyotining barqarorligi, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olishi ham mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog'liq. Bunday kadrlar esa, eng avvalo, maktabda shakllanadi. Yaxshi yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan jamiyatni barpo etadi.

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan ayni paytda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'limni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida umummilliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlari e'lon qilindi.

Respublikamizning barcha hududida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilib, ularga eng malakali mutaxassislar jalb etildi. Shuningdek, mavjud maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda, barcha hududda zamonaviy o'quv maskanlari barpo etilmoqda.

Yangi maktablar qurilishi uchun tarixda kuzatilmagan miqdorda mablag' ajratilmoqda. Birgina 2021 yilning o'zida qariyb 876 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, 520 ta maktabda Investitsiya dasturi, 340 ta maktabda "Obod qishloq" dasturi asosida, 9 ta maktab homiylar, 17 tasi mahalliy byudjet mablag'i hisobidan ta'mirlandi.

Bundan tashqari, joriy yilda 6177 ta maktabda ta'mirlash ishlari bajarildi. eng quvonarlisi, 42 ta maktab mutlaqo yangidan qurilib, zamonaviy qiyofaga keltirildi. O'quvchilarning sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratildi.

Fanlar darsliklari mazmun-mohiyatida, shuningdek, ularning tayyorlanishidagi o'zgarishlar:

Darsliklar o'qituvchilar uchun ma'lum bir mavzuni o'qitish, o'quvchilar uchun bilim olish manbai hisoblanadi. O'tgan yillar mobaynida xalq ta'limi tizimida yo'l qo'yilgan kamchiliklardan biri — maktab ta'limini qamrab oluvchi va mazmunini yaqqol ifodalaydigan yaxlit dastur ishlab chiqilmagan. Vaholanki, o'quvchi maktabni bitirguniga qadar egallaydigan ko'nikmasi, bilimi bilan birga, o'qituvchilarga o'quvchilarning o'zlashtirishini kuzatishi va yordamlashishi uchun me'yorlar jamlangan yagona ta'lim dasturining samaradorligi qator mamlakatlar tajribasida o'zini oqlagan.

Shuni hisobga olib, darsliklardan oldin milliy o'quv dasturi yaratildi. Nimani o'qitamiz, degan masala qayta ko'rib chiqildi. Mazkur hujjat zamonaviy o'quvchi egallashi kerak bo'lgan to'rt muhim jihatning rivojlanishini ta'minlaydi. Bular — tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish, hamkorlik o'rnatish va muloqot qilish ko'nikmalari. Milliy o'quv dasturida maktab bitiruvchisiga talablar, o'quv yuklamalari, o'qitish metodikasi va baholash tizimi belgilab beriladi.

Oddiy bir misol: yaponiyalik mutaxassislar bilan matematika fanini tahlil qilib ko'rilganda mavzular juda og'ir, o'rganish qiyin qilib tayyorlangani ma'lum bo'ldi. 10-11-sinfga borib 5 foiz bola matematikani yaxshi bilishi, qolgan 95 foiz o'quvchi esa bu fandan bezishi mumkin edi. Shu bois, oson tushuniladigan, qiziqarliroq, ertaga o'quvchi qaysi sohada faoliyat olib bormasin, matematikani yaxshi bilishiga zamin

yaratadigan yangi dastur ishlab chiqildi. Albatta, matematikani kuchli o'qiydigan 5 foiz o'quvchi uchun ixtisoslashtirilgan, qo'shimcha o'qitiladigan maktablarda tahsil olish imkoniyati yaratildi. Shu tariqa umumiy maktab bitiruvchilari ham matematikani qiziqib o'qiy boshlashiga erishilganini ko'rishimiz mumkin.

Bu yil 1-2-sinfning kitoblari yangi dastur asosida chiqyapti. Avvalgi darslikdan nimasi bilan farq qiladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Masalan, 1-sinf matematika darsligi bolani tahliliy-tanqidiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan. Matematika faqat raqamlar, hisob-kitob, formuladan iborat emas, bolani mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, ajratish, o'xshashlarini belgilab olish, dunyoqarashini o'stirishga mo'ljallangan darslik bo'lishiga e'tibor berildi.

Keyingi farqi — oldin o'qituvchining kitobi bo'lmagan. Faqat bitta darslik bo'lgan. Hozir darslikdan tashqari o'qituvchining kitobi va mashq daftari, mul'timedia ilovasi, umuman, har bir fan bo'yicha to'rtta material ishlab chiqildi. Bu majmua Kembrij sistemasi bo'yicha yaratildi. O'qituvchiga tayyor o'quv qo'llanma berilayotir. Avvallari o'qituvchiga konspekt yozasan, deyilgan. U konspekt yozishi uchun qo'lida na bir qo'shimcha adabiyot, na internet bo'lgan.

O'zini hurmat qilgan har qanday o'qituvchi darsga kirishdan oldin tayyorgarlik ko'radi. Bugun uning qo'liga tayyor o'qituvchi kitobi, internet, metodik qo'llanma beryapmiz. Sifatli, yorqin ranglardagi darsliklar o'quvchilar uchun ham xuddi shu tartibda tayyorlanayapti. Bu katta ahamiyatga ega. 2026 yilgacha milliy o'quv dasturi joriy qilinishi ko'zda tutilgan. Bunday darsliklar yana yuqori sinflar uchun ham yaratiladi. 10 million AQSH dollaridan iborat xorijiy grant hisobiga Kembrij universiteti nashriyotida hamma sinflarga mo'ljallangan ikkita fan bo'yicha alohida darslik tayyorladik. Ingliz tili va axborot texnologiyalari kelgusi yildan boshlab to'liq xalqaro darajadagi kitoblar asosida o'tiladi.

Yurtimizda matematika, kimyo, fizika va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 30–50 foizni tashkil etadi. Shu bois, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda o'quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashg'ulotlar ko'lamini oshirish yuzasidan ish olib borilmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
3. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
4. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
5. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
6. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdona nashriyoti, B. 2020.-172.
7. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – С. 281-285.